Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ibratovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaqulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investitsiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	



Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiya.....	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.....	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budjet siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag'allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash omili sifatida.....	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи.....	1687
Амонова Хафиза	
O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	1690
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
"Ichki iste'mol uchun qayta ishlash" bojxona protseduralarini O'zbekiston sharoitida qo'llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili.....	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfazovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo'llari va strategiyalar.....	1714
Mo'minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklastar tizimi rivojlantirish yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorligi.....	1718
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo'l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля).....	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o'g'li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo'lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko'chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish.....	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O'zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo'nalishlari.....	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A'zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar.....	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo'llari.....	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari.....	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	



Aksiyadorlik jamiyatlarida o'z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich	



XODIMLARNI RAG‘BATLANTIRISH TIZIMIDA MEHNATGA HAQ TO‘LASH



Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Davlat moliyasi va xalqaro moliya” mutaxassisligi magistranti
ORCID: 0009-0000-2762-2211

Annotatsiya: Mazkur maqolada mehnatga haq to'lash tizimini mehnatni rag'batlantirish vositasi sifatida takomillashtirish zarurati ilmiy asosda tahlil qilingan. Xodimlarning mehnat faoliyatiga bo'lgan munosabatini kuchaytirish, ularni samarali ishlashga undashda ish haqi tizimining tutgan o'rni va ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi asosida ish beruvchi va xodim o'rtasidagi huquqiy munosabatlarda ish haqi mexanizmining tartibga solinishi hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda amaliy tavsiyalar berilgan bo'lib, ular korxonalarda samarali mehnatga haq to'lash tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mehnatga haq to'lash, ish haqi, motivatsiya, xodim, ish beruvchi, Mehnat kodeksi, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract: This article presents a scientific analysis of the need to improve the remuneration system as a tool for labor motivation. The significance of wages in enhancing employee performance and influencing their attitude toward work is thoroughly examined. The paper also explores the legal framework governing wage relations between employers and employees in accordance with the Labor Code of the Republic of Uzbekistan. Furthermore, the study highlights shortcomings in current practices and proposes applicable recommendations for improving the effectiveness of wage systems within organizations.

Key words: remuneration, wages, motivation, employee, employer, Labor Code, economic efficiency.

Аннотация: В статье проведён научный анализ необходимости совершенствования системы оплаты труда как инструмента мотивации работников. Особое внимание уделяется значению заработной платы в повышении трудовой активности персонала и формировании их отношения к работе. Также рассмотрены правовые основы регулирования трудовых отношений между работодателем и работником на основе Трудового кодекса Республики Узбекистан. В завершении предложены практические рекомендации по повышению эффективности системы оплаты труда на уровне организаций.

Ключевые слова: оплата труда, заработная плата, мотивация, работник, работодатель, Трудовой кодекс, экономическая эффективность.

KIRISH

Bugungi davrda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida mehnatga haq to'lash tizimi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida alohida e'tiborni talab etadi. Mehnatga to'lanadigan haq nafaqat xodimlarning turmush darajasini belgilovchi asosiy omil, balki ularning ishlab chiqarishdagi ishtiroki, kasbiy motivatsiyasi va korxonaning ichki muhitiga ta'sir etuvchi muhim rag'batlantiruvchi vosita hisoblanadi. Ish haqi tizimi ijtimoiy siyosatning ajralmas qismi bo'lib, uni takomillashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish, raqobatbardosh mutaxassislarni jalb etish hamda ularni tashkilotda uzoq muddat saqlab qolish imkoniyati ortadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, mehnatga haq to'lash tizimining zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilishi korxonada resurslardan samarali foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish va ijtimoiy-psixologik



muhitni mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda global iqtisodiy beqarorlik, inflyatsiya, mehnat bozori dinamikasi va korxonalararo raqobatning kuchayishi fonida adolatli va motivatsiyalovchi ish haqi tizimiga ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, amaliyotda mehnatga haq to'lash tizimini korxona darajasida samarali tashkil etish va boshqarish bo'yicha puxta ilmiy asoslangan yondashuvlar yetarli emas. Bu holat, avvalo, moliyaviy resurslar cheklanganligi, iqtisodiy tashqi muhitdagi tahdidlar, korxonalarning ichki tuzilmasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar hamda inson resurslarini boshqarishga oid murakkabliklar bilan bog'liq. Shu sababli, mehnatga haq to'lash tizimini chuqur o'rganish, uning nazariy asoslarini mustahkamlash va amaliy mexanizmlarini takomillashtirish hozirgi davrning dolzarb ilmiy va amaliy vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasida ish haqi odatda "mehnatdan foydalanish uchun to'lanadigan narx" [1] sifatida ta'riflanadi. Bu yerda "mehnat" atamasi keng ma'noda talqin qilinadi va u turli kasb egalari, barcha darajadagi mutaxassislar hamda xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznes subyektlarining faoliyatini qamrab oladi.

Ish haqining mazmun-mohiyati va uni belgilash mezonlari haqida turli yondashuvlar mavjud. Ulardan eng ko'p uchraydigan qarash – bu ish haqini mehnat shartnomasi doirasida bajarilgan ish uchun to'lanadigan mukofot sifatida talqin etish bo'lib, mehnatning miqdori va sifati bilan bog'liq tarzda belgilanadi. Ushbu yondashuv L.A. Sirovatskaya, V.S. Andreev va V.N. Tolkunova [2] kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan.

Mazkur yondashuv O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham mustahkamlangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 243-moddasida mehnatga haq to'lash – bu ish beruvchi tomonidan xodimga uning bajargan mehnati uchun to'lovlarni belgilash va amalga oshirishga oid huquqiy munosabatlar tizimi sifatida ta'riflanadi. Bu munosabatlar mehnat shartnomasi, mehnat qonunchiligi hamda boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi.

Ish haqi tarkibi keng ko'lamli bo'lib, unda xodimning malakasi, bajarilayotgan ishning murakkabligi, miqdori, sifati va ish sharoitlariga qarab to'lanadigan asosiy mukofot summasi bilan bir qatorda, bir qator kompensatsion va rag'batlantiruvchi to'lovlar ham mavjud. Kompensatsion to'lovlar – bu noqulay tabiiy-iqlimiy yoki og'ir mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun beriladigan ustamalar bo'lsa, rag'batlantiruvchi to'lovlar esa – xodimlarni moddiy jihatdan rag'batlantirishga qaratilgan qo'shimcha mukofotlar, ustamalar va boshqa taqdirlash shakllarini o'z ichiga oladi [3].

Mehnatga haq to'lash masalalari qadimgi davrlardan oq mutafakkirlar e'tiborida bo'lgan. Jumladan, qadimgi yunon faylasuflari Platon, Aristotel va Ksenofont mehnatga beriladigan haqni ijtimoiy tenglik va adolat mezonida baholaganlar. Keyinchalik, klassik siyosiy iqtisod maktabi vakillari – Adam Smit va David Rikardo ish haqini mehnat qiymatining narxli ifodasi sifatida tushuntirganlar. Fransuz iqtisodchisi Jan Batist Sey esa ishlab chiqarishning uch omilidan biri bo'lgan mehnatni kapital bilan ayirboshlanuvchi xizmat sifatida ko'rgan va mehnatga haq to'lashni ushbu xizmat uchun to'lov deb ta'riflagan [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosi sifatida mehnatga haq to'lash tizimining nazariy tamoyillari, xodimlar mehnat faoliyatini rag'batlantirishga oid ilmiy qarashlar hamda mavzuga oid dolzarb adabiyotlarning tizimli tahlili xizmat qildi. Tadqiqotda kontent tahlil, taqqoslash, deduktiv tahlil hamda amaliy va nazariy manbalarni o'zaro uyg'unlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, mehnatga haq to'lashni tashkil etishning mavjud shakllari va ularning xodim motivatsiyasiga ta'siri o'rganilib, bu boradagi ilg'or yondashuvlar va tajribalar ilmiy asosda umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi iqtisodiy sharoitda mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha turdagi korxonalar iste'molchilarga taqdim etilayotgan mahsulot va xizmatlarning yuqori sifatli bo'lishi, bozordagi raqobatbardosh ulushni kengaytirish, moliyaviy natijalarni yaxshilash hamda foyda hajmini oshirishdan manfaatdordir. Ushbu maqsadlarga erishish, eng avvalo, xodimlarning mehnat unumdorligi va ish sifatiga bevosita bog'liq bo'lib, bu esa o'z navbatida rahbariyat tomonidan amalga oshirilayotgan rag'batlantirish va motivatsiya siyosatining samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Korxona faoliyatini muvaffaqiyatli yuritish uchun turli boshqaruv vositalari mavjud bo'lib, ulardan eng muhimlaridan biri sifatida xodimlarni rag'batlantirish tizimi e'tirof etiladi. Ushbu tizim har bir xodimning mehnat




samaradorligini oshirishga xizmat qiladi va natijada butun korxonadagi boshqaruv samaradorligi hamda umumiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga olib keladi [5].

Zamonaviy sharoitda moddiy rag'batlantirish tizimi keng qamrovli va turlicha yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Ulardan eng samarali va keng tarqalgan shakllari 1-rasmda tasvirlangan. Ayniqsa, tashkilot ichida mukofotlash tizimi moddiy rag'batlantirish mexanizmining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Bunday mukofotlash orqali rahbariyat xodimlarni yuqori natijalarga erishishga undaydi, bu esa o'z navbatida korxona daromadlarini ko'paytirish va barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bois, mukofot ish haqi tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanadi, chunki u xodimning ishlab chiqargan mehnatining qiymatini baholash hamda ularni iqtisodiy rag'batlantirish vositasi sifatida amal qiladi. Boshqacha aytganda, korxonada mehnatga haq to'lash shakllari va miqdorlarining to'g'ri belgilanishi tashkilotning zarur mutaxassislarni jalb qilish, ularni faol saqlab qolish va samarali mehnatga undash salohiyatini belgilovchi muhim omil sanaladi.

Moddiy rag'batlantirish usullari xodimlarning mehnat faoliyatini rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan mexanizmlarni ifodalaydi. Ushbu tizim uch asosiy shakldan iborat bo'lib, ular orqali tashkilot xodimlarni muntazam mehnat samaradorligi, yil yakunidagi natijalar hamda alohida topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarganlik uchun moddiy jihatdan rag'batlantiradi. Oylik yoki choraklik mukofotlar muntazam ish natijalariga asoslanadi, yil yakunida beriladigan mukofotlar esa korxonaning umumiy faoliyat ko'rsatkichlari bilan bog'liq bo'ladi. Bir martalik mukofotlar esa muhim vazifalarni bajargan xodimlarga alohida rag'bat sifatida taqdim etiladi. Ushbu usullarni uyg'un qo'llash orqali korxonada mehnatga bo'lgan munosabatni kuchaytirish, ish samaradorligini oshirish va xodimlar o'rtasida ijobiy raqobat muhitini shakllantirish mumkin (1-rasm).



1-rasm Xodimlarni moddiy rag'batlantirish tizimi.

Mehnatga haq to'lash tizimini samarali tashkil etish uchun, eng avvalo, xodimlarga to'lanadigan pul mukofotining asosiy tarkibiy qismlarini aniq belgilash zarur. An'anaviy yondashuvga ko'ra, bu tarkibga asosiy ish haqi (oklad), ustamalar, turli xil qo'shimcha to'lovlar, yil davomida bajarilgan ishlar natijasi uchun beriladigan mukofotlar hamda rahbariyat qaroriga asosan bir martalik to'lovlar kiradi [1]. Biroq bugungi kunda xodimlarni yuqori natijalarga erishishga undash va ularni tashkilotda uzoq muddat saqlab qolish maqsadida uzoq muddatli mukofotlash tizimini shakllantirish muhim hisoblanadi. Bunday tizim ayniqsa korxona uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan, yuqori malakali va tajribali xodimlar uchun joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

Ushbu yondashuv orqali xodim kompaniyada ma'lum yillar davomida faoliyat yuritganidan so'ng to'liq mukofotni olish huquqiga ega bo'ladi, bu esa ularning tashkilotga sadoqatini oshiradi. Xodimlarni moddiy jihatdan rag'batlantirish esa asosan pul ko'rinishidagi imtiyozlar yordamida amalga oshiriladi va bu jarayon pul bilan bir qatorda nomoddiy shakllarni ham o'z ichiga oladi [2].

Rag'batlantirish atamasi yunoncha "motif" hamda lotincha "moveo" so'zlariga borib taqaladi va ular harakatlantirish yoki faoliyatga undash degan ma'noni anglatadi. Motivatsiya insonning ehtiyojlariga asoslanadi va uni ichki psixologik holat sifatida talqin etish mumkin. Bu jarayon insonni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun harakat qilishga undaydi. Rag'batlantirish bu – inson faoliyatiga turtki beruvchi ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, qiziqishlar va intilishlar tizimidir [3].

Mehnat motivatsiyasi esa tashkilot maqsadlariga erishish yo'lida xodimlarning shaxsiy harakatlarini rag'batlantirish va ularni faol mehnatga jalb etish jarayonidir. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, ayrim olimlar



inson harakatini uning ehtiyojlari bilan izohlasa, boshqalar bu harakatni inson idroki va kutishlariga bog'laydi [4].

Ehtiyojlar esa odatda inson o'zi uchun qadrlı deb bilgan narsalarni olish orqali qondiriladi. Masalan, yuqori daromadga ega bo'lgan inson uchun ortiqcha ish uchun to'lanadigan puldan ko'ra, oilaviy vaqtni tejash muhimroq bo'lishi mumkin. Yoki ilmiy muassasada ishlovchi shaxs uchun moddiy manfaatdan ko'ra kasbiy obro', hamkasblar hurmati va ishning mazmuni ustuvor ahamiyat kasb etadi [5].

Rag'batlantirishga asoslangan mehnatni boshqarish uchun esa xodimning shaxsiy manfaatlari va moyilliklarini aniqlash, uning professional salohiyati va motivatsion imkoniyatlarini inobatga olish muhimdir. Bundan tashqari, har bir xodim uchun mos alternativ yondashuvlarni ishlab chiqish, shaxsiy va tashkilot maqsadlarini uyg'unlashtirish zarur.

Rag'batlantirish tizimi quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi: xodimlarda rag'batlantirish mohiyatini tushunish ko'nikmasini shakllantirish, psixologik va kommunikativ jihatdan samarali xulq-atvor madaniyatini rivojlantirish, rahbarlarda demokratiya va innovatsion yondashuvlarga asoslangan boshqaruv madaniyatini qaror toptirish [6].

Bugungi kunda rag'batlantirish tizimi nafaqat xususiy sektor, balki davlat byudjet tashkilotlarida ham izchil yo'lga qo'yilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 19-sentabrdagi "Budjet tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus fondi to'g'risida"gi 176-sonli¹ buyrug'i bilan tasdiqlangan "Budjet tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus fondi to'g'risidagi nizom" ushbu sohada yuridik asoslarni mustahkamlab bermoqda [7].

Umuman olganda, xodimlarni samarali rag'batlantirish nafaqat mehnat unumdorligini oshiradi, balki tashkilotning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Shu bois, har bir tashkilot mavjud ehtiyojlar va real shart-sharoitlardan kelib chiqib, xodimlar uchun moslashuvchan va zamonaviy rag'batlantirish strategiyalarini ishlab chiqishi dolzarb hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, motivatsiya xodimlarning kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyat va samaradorlikni belgilovchi asosiy omillardan biridir. U insonning o'zini va boshqalarni mehnatga undashi, shuningdek, shaxsiy, jamoaviy va ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun harakatlarini rag'batlantirish jarayonidir [8]. Shunday ekan, xodimlarni samarali rag'batlantirish uchun motivatsiyaning turli shakllari va vositalaridan kompleks tarzda foydalanish zarur.

Samarali rag'batlantirish tizimi xodimlarning mehnat faoliyati, shaxsiy ehtiyojlari, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim. Bu tizim moddiy va nomoddiy rag'batlantirish vositalarining o'zaro muvofiqlashtirilgan shaklida tashkil etilishi kerak.

Ish haqi – tashkilot xodimlari daromadining asosiy manbai bo'lib, u odatda pul shaklida ifodalanadi va xodimlarning mehnat salohiyatini yuzaga chiqarish hamda ularni yuqori samaradorlikka undashda muhim rag'batlantiruvchi vosita hisoblanadi. Tashkilotlarda ish haqi tarkibi odatda ichki siyosat, faoliyat sohasi va xodimlarning malaka darajasiga qarab farq qiladi. Har bir tashkilot o'zining konkret shart-sharoitlaridan kelib chiqib, ish haqi tizimini belgilaydi.

Shu bilan birga, mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlarini tanlashda xodimlar ixtiyoridagi resurslar, ularning o'z mehnatiga bo'lgan munosabati, tashkilot maqsadlariga qo'shgan hissasi va umumiy iqtisodiy samaradorlikka bo'lgan ta'siri hisobga olinishi lozim. Ayniqsa, tashkilotlar raqobatbardoshligini ta'minlash, malakali kadrlarni jalb qilish va ularni saqlab qolish istagida bo'lsa, ish haqi va rag'batlantirish tizimlarini zamonaviy yondashuvlar asosida muntazam takomillashtirib borishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. P.G. Yermishin. Osnovi ekonomicheskoy teorii: kurs leksiy. – M.: Finansi i statistika, 2005.
2. V.S. Andreev, V.N. Tolkunova. Sovetskoye trudovoye pravo. – M.: Oliy maktab, 1987.
3. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, 243-modd.
4. Byom-Baverk, Oygen fon. Kapital i protsent, 1884–1889-yil. VII bob. Teoriya proizvoditelnosti. 2. Naivnye teorii proizvoditelnosti // Izbrannye trudy o stoimosti, protsente i kapitale. – M.: Eksmo, 2009. – B. 373–396. – 912 b. – (Antologiya ekonomicheskoy mysli).
5. I.V. Simakova, V.A. Koksharov. Oplata truda v sisteme motivatsii personala // Nauchnoye obozreniye. Ekonomicheskaya nauka. 2023. № 3. – B. 183.
6. Xodimlarni boshqarish. Samaradorlikni baholash: Universitetlar uchun darslik / Yu.G. Odegov, L.V. Kartasheva. – M.: Imtixon, 2012. – 256 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 19-sentabrdagi 176-son buyrug'i.
8. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2010.

1 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 19-sentabrdagi "Budjet tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus fondi to'g'risida"gi 176-sonli buyrug'i: <https://lex.uz/mact/-7171294>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
